

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/2025.27.12.Fil.37.02 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH ASOSIDA BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI**

**NE'MATOVA NIGORA SOLIDDIN QIZI**

**CHET TILNI O'QITISHDA BOSHLANG'ICH SINFI  
O'QUVCHILARINING MUSTAQIL TA'LIM OLIISH  
JARAYONINI SHAKLLANTIRISH**

**13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ingliz tili)**

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Samarqand – 2026**

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)  
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)  
on pedagogical sciences**

**Ne‘matova Nigora Soliddin qizi**

Chet tilni o‘qitishda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining mustaqil ta‘lim olish jarayonini shakllantirish ..... 3

**Неъматова Нигора Солиддин кизи**

Формирование процесса самостоятельного обучения учащихся начальных классов при обучении иностранному языку ..... 25

**Nematova Nigora Soliddin kizi**

Formation of the process of independent learning of primary school pupils in teaching a foreign language..... 49

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ  
List of published works ..... 54

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/2025.27.12.Fil.37.02 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH ASOSIDA BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI**

**NE'MATOVA NIGORA SOLIDDIN QIZI**

**CHET TILNI O'QITISHDA BOSHLANG'ICH SINFI  
O'QUVCHILARINING MUSTAQIL TA'LIM OLIISH  
JARAYONINI SHAKLLANTIRISH**

**13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ingliz tili)**

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Samarqand – 2026**

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida № B2025.1.Phd/Ped7103 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Samarqand davlat chet tillar institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz) Ilmiy kengash veb-sahifasining [www.samdhti.uz](http://www.samdhti.uz) hamda "Ziyonet" Axborot ta'lim portali [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:** **Rustamova Adash Eshankulovna**  
pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

**Rasmiy opponentlar:** **Jumanazarov Umid Umirzakovich**  
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

**Raxmonov Azizxon Bositxonovich**  
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

**Yetakchi tashkilot:** **Samarqand davlat pedagogika instituti**

Dissertatsiya himoyasi Samarqand davlat chet tillar instituti huzuridagi Ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/2025.27.12.Fil.37.02 raqamli ilmiy kengash asosida Bir martalik ilmiy kengashning 2026-yil "6" mart 1000 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 140117, O'zbekiston, Samarqand, Gagarin ko'chasi, 43-uy. Tel: (99866) 238-29-37; faks: (99878) 210-00-18; e-mail: [info@samdhti.uz](mailto:info@samdhti.uz)).

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat chet tillar institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (2.694-raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 140117, O'zbekiston, Samarqand, Gagarin ko'chasi, 43-uy. Tel: (99866) 238-29-37.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "19" fevral kuni tarqatildi.  
(2026-yil "19" fevral dagi № 5 -raqamli reyestr bayonnomasi).



**N.Z. Nasrullayeva**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosida Bir martalik ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

**O'.O'. Qo'ldoshov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosida Bir martalik ilmiy kengash kotibi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**D.A. Kiselyov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosida Bir martalik ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda chet tillarni o‘qitishning sifat ko‘rsatkichlarini aniqlashda xalqaro standartlarni qo‘llash davlatlarning til ta‘limida chet til ta‘limiga ko‘proq e‘tibor berish va uni o‘qitishni takomillashtirishga bo‘lgan ehtiyojini yanada kuchaytirdi. Chet tilni o‘rgatish samaradorligini oshirish maqsadida o‘quv-uslubiy ta‘minotni xalqaro talablar asosida moslashtirish, ta‘lim jarayoniga mustaqil ta‘lim elementlarini integratsiyalash va ta‘lim sifatini tizimli boshqarish, kutilgan natijalarga erishishda bir-birini to‘ldiruvchi asosiy omillardir. Bunday yondashuv nafaqat til o‘rgatish jarayonini samarali qiladi, balki o‘quvchilarni o‘zlarini nazorat qilish, individual rivojlanish va mustaqil fikrlashga rag‘batlantirib, ularning umumiy ta‘lim darajasini sezilarli darajada oshiradi.

Dunyoning nufuzli Kembrij, Oksford, Kanada kabi yetakchi oliy ta‘lim muassasalarida amalga oshirilayotgan loyihalar, shuningdek Koreya, Finlyandiya, Yaponiya va Xitoy singari taraqqiy etgan davlatlarning maktablarida olib borilayotgan ilmiy-amaliy izlanishlar boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga xorijiy tilni o‘rgatishda ularning psixologik jihatlari, individual xususiyatlari hamda o‘quv imkoniyatlarini inobatga olib ta‘lim berish, chet tilni madaniyatlararo muloqot vositasi sifatida o‘qitish, boshlang‘ich bosqichda ayrim fanlarni ingliz tilida o‘qitish borasidagi tadqiqotlarning olib borilayotgani bilan muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu loyihalarni amalga oshirishda asosiy va yetakchi urg‘u o‘quvchilarning mustaqil ta‘lim olish ko‘nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan bo‘lib, ushbu jarayon chet til ta‘limida samaradorlikka erishishni ta‘minlashi lingvopsixologik va lingvodidaktik jihatdan ilmiy asoslangan.

O‘zbekiston ta‘lim tizimida boshlang‘ich sinflarda ingliz tilini o‘qitish sifatini oshirish maqsadida bir qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, ESN:STT dasturi o‘qituvchilarning til o‘rgatish bo‘yicha kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qilmoqda. PIRLS, ENC hamda EGRA kabi xalqaro va milliy baholash tizimlarining joriy etilishi esa o‘quvchilarning til ko‘nikmalarini zamonaviy mezonlar asosida rivojlantirishga imkon bermoqda. Ushbu tashabbuslar til savodxonligini yuqori standartlarga ko‘tarish hamda chet (ingliz) tili ta‘limi texnologiyalarini yanada mukammallashtirishda alohida ahamiyatga ega. Ayniqsa, “o‘qitish metodikasini takomillashtirish, ta‘lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich joriy etish”<sup>1</sup> kabi vazifalar ilgari surilgan. Bu jarayonda pedagog kadrlar tayyorlash tizimini modernizatsiya qilish, o‘quv materiallari va pedagogik baholash mezonlarini qayta ishlab chiqish, zamonaviy ta‘lim texnologiyalarini chuqur o‘rganish, pedagogik psixologiya bo‘yicha yetarli bilimga ega bo‘lish hamda ta‘lim jarayonida kompetensiyaviy yondashuv va shaxsga yo‘naltirilgan metodlarni puxta egallash talab etiladi. Shuningdek, pedagoglarni tayyorlash va qayta tayyorlash bilan shug‘ullanuvchi markazlar faoliyatini takomillashtirishni qayta ko‘rib chiqish ham dolzarb vazifalar sirasiga kiradi.

---

<sup>1</sup> Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. – Toshkent, O‘zbekiston NMIU, 2017. – 408 b.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi, 2018-yil 5-sentabrdagi PF-5538-son “Xalq ta’limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2019- yil 29-apreldagi PF-5712-son “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmonlari, 2019-yil 3-maydagi PQ-4306-son “Iqtidorli yoshlarni aniqlash va yuqori malakali kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2019-yil 20-fevraldagi PQ-4199-son “Prezident maktablarini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 25-iyundagi 526-son “Prezident maktablari to‘g‘risidagi Nizom”, 2019-yil 9- yanvardagi 9-son “Ixtisoslashtirilgan san’at va madaniyat maktablari hamda maktab-internatlarning faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi qarorlari, shuningdek, mazkur faoliyatga taalluqli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni bajarishda ham dissertatsiya tadqiqoti ma’lum darajada amaliy ahamiyat kasb etadi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I.“Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Mamlakatimizda xorijiy tillarni o‘qitish metodikasi bilan G.X.Bakiyeva, J.J.Jalolov, G.T.Maxkamova, T.K.Sattorov, L.T.Axmedova, D.U.Xoshimova, M.Djusupov, V.I.Andriyanova, F.SH.Alimov, B.G.Kulmatov, U.U.Jumanazarov, I.M.Tuxtasinov, A.E.Rustamova, G.Tajibayev<sup>2</sup> kabi olimlar ilmiy tadqiqot ishlarini olib borgan.

---

<sup>2</sup> Бакиева Г., Махкамова Г., Кулдошев А. English 3. – Ташкент, 2007. – 216 б; Jalolov J.J., Makhkamova G.T., Ashurov Sh.S. English Language Teaching methodology. – Tashkent: Fan va texnologiya, 2015. – 336 p.; Axmedova L.T. Теория и практика обучения профессиональной русской речи студентов-филологов. – Ташкент: Фан ва технология, 2013. – 200 с.; Саттаров Т. Формирование профессиональных умений будущего учителя иностранного языка на практических занятиях по специальности (на материале английского языка): Автореф. дисс. док. пед. наук. – 2000. – 32 с., Хашимова Д.У. Лингводидактические основы изучения лагун в контексте современного функционирования русского языка и межъязыковой взаимодействия: Дисс. ... док. пед. наук 2007. – 209 с.; Джусупов М. Русский и английский языки в системе школьного полилингвального образования в Узбекистане. Русский язык зарубежом / специальный выпуск / 2017. – С. 50-57.; Андриянова В.И. Теория и практика обучения узбекских школьников устноречевому общению на русском языке: Дис. ... док. пед. наук. – Tashkent, 1997. – 350 с.; Alimov F.Sh. Ingliz tilida yozuv kompetensiyasini shakllantirish (nofilologik fakultetlar misolida): Ped.fan.bo‘yicha falsafa dok.(PhD) diss. avtoref. – Tashkent, 2018. – 41 b.; Kulmatov B.G. Ingliz tilini innovatsion texnologiyalar yordamida o‘qitishda CEFR mezonlaridan foydalanishning nazariy asoslarini takomillashtirish: Ped.fan.bo‘yicha falsafa dok.(PhD) diss. avtoref. – Tashkent, 2018; – 164 b.; Jumanazarov U.U. Ta’limni raqamlashtirish muhitida bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining lingvistik kompetensiyasini rivojlantirish: Ped.fan.bo‘yicha falsafa dok.(PhD) diss. avtoref. – Tashkent, 2018. – 89 b.; Tuxtasinov I.M.Tarjimon tayyorlashda kasbiy kompetensiyalarni ekvivalentlik hodisasi asosida rivojlantirish: Ped.fan.bo‘yicha falsafa dok. (DSc) diss. avtoref. – Tashkent, 2018. – 23 b.; Rustamova A.E. Maktabgacha yoshdagi bolalarda chet tilni o‘qitishda talaffuzni shakllantirish va rivojlantirish: Ped.fan.bo‘yicha falsafa dok.(PhD) diss. avtoref. – Samarqand, 2021. – 136 b.; Tajibayev G.Sh. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga chet til o‘qitishda kommunikativ yondashuv: Ped.fan.bo‘yicha falsafa dok.(PhD) diss. avtoref. – Tashkent, 2018. – 24 b.

Maktab ta'limi tizimida o'qitish sifati va uni boshqarish bo'yicha A.Musurmanova, M.M.Vahobov, N.K.Axmedova, O.R.Jamoldinova, B.X.Xodjayevlar<sup>3</sup> tomonidan ilmiy tadqiqotlar olib borilgan.

Respublikamiz va MDH mamlakatlarida umumiy o'rta ta'lim maktablarida psixologik yordam ko'rsatishning ilmiy-amaliy jihatlari N.I.Xalilova, G.R.Tojiboyeva, N.X.Xolyigitova, Z.A.Abdurahmonova, N.H.Madjitova, N.S.Leytes, M.Bagramyans, A.D.Barbitova, N.A.Belskaya, Ye.P.Ilin, D.Kanemanlar, I.G.Antonova, O.Yu.Aparina, V.N.Afanasevalar<sup>4</sup> tomonidan o'rganilgan.

Xorijiy mamlakatlarda V.S.Avanesov, A.A.Krasnoborova, M.B.Chelishkova, A.D.Koyen, T.Maknamara, A.Hyuz, K.Kum, E.Harrison, J.V.Oller, L.F.Baxmen, E.S.Palmerlar<sup>5</sup> chet tilni bilish darajasini baholash masalalari yuzasidan tadqiqotlar olib borganlar.

---

<sup>3</sup> Мусурманова А. Концептуальные основы формирования духовной культуры молодежи в системе непрерывного образования // Проблемы педагогики. – № 4 (43). – Москва, 2019. С. 5-7.; Вахобов М.М. Умумий ўрта таълим тизимида ўқитиш сифати мониторинги моделини такомиллаштириш: Пед. фан. док. дисс. автореф. – Тошкент, 2016. – 81 б.; Ахмедова Н.К. Умумий ўрта таълим мактаблари раҳбарлари бошқарув фаолияти самарадорлигини ошириш: Пед. фан. бўйича фалсафа док. (PhD) дисс. автореф. – Тошкент, 2017. – 58 б.; Жамолдинова О.Р. Ёшлар соғлом турмуш маданиятини ривожлантиришда узвийлик ва узлуксизлик тамойиллари амал қилишининг педагогик механизмларини такомиллаштириш: Пед. фан. док. дисс. автореф. – Тошкент, 2015. – 86 б.; Ходжаев Б.Х. Умумтаълим мактаби ўқувчиларида тарихий тафаккурни модернизациялашган дидактик таъминот воситасида ривожлантириш: Пед. фан. док. дисс. автореф. – Тошкент, 2016. – 82 б.

<sup>4</sup> Xalilova N.I. Psixologik xizmat ko'rsatishning nazariy-metodik asoslari umumta'lim maktablarida: Ped. fan. nomz. diss. – Toshkent, 2006. – 210 b.; Tojiboeva G.R. Maktab psixologining nizoli vaziyatlardagi psixokorreksion faoliyati xususiyatlari (o'smir o'quvchilar misolida): Ped.fan.bo'yicha falsafa dok.(PhD) diss. avtoref. – Toshkent, 2018. – 53 b.; Xolyigitova N.X. Boshlang'ich sinf o'quvchilari faoliyatini faollashtirishda psixologik omillar: Ped. fan. nomz. diss. – Toshkent, 2012. – 185 b.; Abdurahmonova Z.A. O'qituvchi va o'quvchining hamkorlik faoliyatini tashkil etishning pedagogik-psixologik xususiyatlari // Zamonaviy ta'lim. – Toshkent, 2017. - № 9. – B. 17-21.; Madjitova N.H. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida psixologik yordam ko'rsatishning ilmiy-amaliy jihatlari // Zamonaviy ta'lim. – Toshkent, 2017. - № 2. – B. 47-53.; Лейтис Н. С. Умственные способности и возраст – Москва–Воронеж, 2016. – 200 с.; Баграмянц М. О некоторых аспектах создания развивающей среды для одаренных детей // Прикладная психология и психоанализ. – 2004. - N 2. - С. 30-36.; Барбитова А.Д. Методика психологического сопровождения учебного процесса в начальной школе: Дисс. канд.психол.наук. – Москва, 1999. – 212 с.; Белская Н.А. Формирование учебной мотивации младших школьников. – Москва: Педагогика, 2003. – 205 с.; Илин Е.П. Психология: Эмоции и чувства. – Санкт-Петербург: Питер, 2001. – 256 с.; Канеман Д. Думай медленно... решай быстро (Thinking, Fast and Slow). – Москва: АСТ, 2012. – 512 с.; Антонова И.Г. Личностно-ориентированное образование в начальной школе. – Москва: Педуниверситет, 2005. – 198 с.; Апарина О.Ю. Психолого-педагогическое сопровождение учебного процесса в начальных классах– Москва: Издательство МГПУ, 2004. – 210 с.; Афанасева В.Н. Развитие рефлексивных умений учащихся начальной школы. – Москва: Академкнига, 2006. – 220 с.

<sup>5</sup> Аванесов В.С. Оценка качества подготовки специалистов в тестовой форме. – Москва: МГУ, 1998. – 215 с.; Красnobорова А.А. Тестирование и оценка учебной деятельности студентов по иностранному языку. – Москва: МГПУ, 2001. – 204 с.; Челишкова М.Б. Теория и практика конструирования педагогических тестов.: Дис. док.пед.наук. – Москва, 2002. – 310 с. Cohen A.D. Assessing Language Ability in the Classroom. – Boston: Heinle & Heinle, 1994. – 285 p.; McNamara T. Language Testing. – Oxford: Oxford University Press, 2000. – 200 p. Hughes A. Testing for Language Teachers. – Cambridge: Cambridge University Press, 2003. – 255 p.; Coombe C., Davidson P., O'Sullivan B., Stoyhoff S. The Cambridge Guide to Second Language Assessment. – Cambridge: Cambridge University Press, 2012. – 312 p.; Harrison A. A Language Testing Handbook. – London: Macmillan, 1983. – 192 p.; Oller J.W. Language Tests at School: A Pragmatic Approach. – London: Longman, 1979. – 224 p.; Bachman L.F. Fundamental Considerations in Language Testing. – Oxford: Oxford University Press, 1990. – 400 p.; Bachman L.F., Palmer A.S. Language Testing in Practice. – Oxford: Oxford University Press, 1996. – 377 p.; Palmer A.S. Testing Spoken Language: A Handbook of Oral Testing Techniques. – Cambridge: Cambridge University Press, 1981. – 150 p.

Boshlang'ich ta'lim bo'yicha X.S.Bakieva, H.X.Hamzayev, B.O.Toshboyeva, Z.L.Umurov, M.J.Shodiyevalar<sup>6</sup> tadqiqot olib borganlar.

Boshlang'ich sinflarda ingliz tilini o'qitishda mustaqil ta'lim ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish zarurati tadqiqotimiz mavzusini belgilab berdi.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Tadqiqot ishi Samarqand davlat chet tillar instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining "Zamonaviy filologik yo'nalishlar va chet til o'qitish metodikasi integratsiyasi" bandi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** chet tilni o'qitishda boshlang'ich sinf o'quvchilarining mustaqil ta'lim ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

boshlang'ich sinf o'quvchilarining lingvopsixologik xususiyatlarini aniqlash;  
boshlang'ich sinflarda ta'limni tashkil etishning mazmun-mohiyatini tahlil qilish;

boshlang'ich sinf o'quvchilariga ingliz tilini o'qitishda mustaqil ta'limning ahamiyatini o'rganish;

boshlang'ich sinf o'quvchilariga ingliz tilini o'rgatishda mustaqil ta'lim ko'nikmalarini shakllantirish uchun "English Self-Study Routine (ESSR)" elektron ta'lim resursini ishlab chiqish;

o'quvchilarga ingliz tilini o'rgatishda mustaqil ta'lim ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish uchun ishlab chiqilgan "English Self-Study Routine (ESSR)" elektron ta'lim resursida taqdim etilgan didaktik ta'minotni tajriba-sinovdan o'tkazish va samaradorlik natijalarini aniqlash.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida boshlang'ich sinflarda chet tilni o'qitishda mustaqil ta'lim olishni shakllantirish va rivojlantirish jarayoni belgilangan bo'lib, tajriba-sinov ishlariga Qashqadaryo, Jizzax va Samarqand viloyatlaridagi 6 ta maktabdan jami 860 nafar boshlang'ich sinf o'quvchilari jalb etilgan.

**Tadqiqotning predmeti** boshlang'ich sinflarda chet tilni o'qitishda mustaqil ta'lim olish jarayonini shakllantirish va rivojlantirish mazmuni, shakl va vositalaridan iborat.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqotda adekvat holatda o'rganishni ta'minlashga qaratilgan metodlar majmui qo'llanildi: nazariy (tahliliy, qiyosiy taqqoslash), diagnostik (so'rovlar, test o'tkazish, kuzatish), prognostik (ekspert baholash, mustaqil baholarni umumlashtirish), pedagogik-tajriba va matematik statistik (ma'lumotlarni statistik qayta ishlash, natijalarni grafik tasvirlash).

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

---

<sup>6</sup> Bakieva X.S. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida mustaqil ta'lim orqali nutq va tafakkurni rivojlantirish metodikasi: Ped.fan.bo'yicha falsafa dok.(PhD) diss. avtoref. – Samarqand, 2019. – 52 b.; Hamzayev H.X. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini o'quvchilarda ijtimoiy faollik ko'nikmalarini shakllantirishga tayyorlash tizimini takomillashtirish: Ped.fan.bo'yicha falsafa dok.(PhD) diss. avtoref. – Nukus, 2019. – 52 b.; Toshboyeva B.O. Boshlang'ich sinflarda chet (ingliz) tili o'qitish texnologiyalarini takomillashtirish: Ped.fan.bo'yicha falsafa dok.(PhD) diss. – Samarqand, 2020. – 51 b.; Umurov Z.L. Boshlang'ich sinf o'quvchilari ta'limiy muammolariga oid didaktik shart-sharoitlarni takomillashtirish: Ped.fan.bo'yicha falsafa dok.(PhD) diss. avtoref. – Samarqand, 2019. – 55 b.; Shodiyeva M.J. Boshlang'ich sinf o'qituvchilari malakasini oshirish tizimining o'quv-metodik ta'minotini takomillashtirish: Ped.fan.bo'yicha falsafa dok.(PhD) diss. avtoref. – Toshkent, 2019. – 50 b.

boshlang'ich sinf o'quvchilarining chet tilda leksik minimumni o'zlashtirish jarayonida yuzaga keladigan talaffuz qiyinchiliklarini inobatga olgan holda tavsiya etilgan fonetik minimum tovushlarning pozitsion, oppozitsion, akustik hamda artikulyatsion xususiyatlari va qiyinchiliklari asosida tanlab olinishi mustaqil ta'lim jarayonida o'quvchilarda chet til talaffuzini to'g'ri shakllantirishga xizmat qilishi ilmiy jihatdan asoslab berilgan;

o'quvchilarning chet tilda leksik minimumni mustaqil ta'lim asosida egallashlari uchun "ESSR (English Self-Study Routine)" da maxsus dasturlar orqali video va audiomatnlar ko'rinishida o'rganish imkoniyati yaratilgan bo'lib, mazkur minimumni "virtuallik va vizuallik", shuningdek, "retseptivlik, produktivlik va reproduktivlik integratsiyasi" asosida o'rganish imkoniyati takomillashtirilgan;

"ESSR (English Self-Study Routine)" elektron ta'lim resursi tarkibida "Glossary" va "Self-testing" bo'limlarining mavjudligi o'quvchilarning mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini rivojlantirish bilan birga, ularda "self-assessment (o'z-o'zini baholash)" hamda "self-correction (o'z-o'zini tuzatish)" ko'nikmalarining shakllanishiga xizmat qilishi lingvopsixologik va lingvodidaktik yondashuvlar asosida asoslab berilgan;

o'quvchilarning mustaqil ta'lim olish jarayonini "ESSR (English Self-Study Routine)" elektron ta'lim resursi asosida rivojlantirishda audiovizual va videovlog shaklida taqdim etilgan materiallarning zamon talablariga mosligi, shuningdek, tarbiyaviy ta'lim, onglilik, faollik, ko'rgazmalilik, sistemalilik, individual yondashuv, puxta o'zlashtirish va o'quvchi potensialiga moslik kabi didaktik tamoyillarning integratsiyalashuvi va o'zaro uyg'unligi o'quvchilarning mustaqil ta'lim olish jarayonini takomillashtirishga xizmat qilishi nazariy va amaliy jihatdan isbotlangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

boshlang'ich sinflarda chet (ingliz) tilni o'qitishda mustaqil ta'lim ko'nikmalarini shakllantirish uchun metodik-didaktik ta'minot tavsiya etilgan;

boshlang'ich sinflarda chet (ingliz) tilni o'qitishda mustaqil ta'lim ko'nikmalarini shakllantirish uchun "English Self-Study Routine" elektron ta'lim resursi ishlab chiqilgan;

boshlang'ich sinflarda chet (ingliz) tilni o'qitishda mustaqil ta'lim ko'nikmalarini shakllantirish uchun "English Self-Study Routine" elektron ta'lim resursiga mualliflik guvohnomasi olingan;

boshlang'ich ta'limda mustaqil ta'limni tashkil etishning nazariy asoslarini o'z ichiga olgan "The main concept of self-study learning" nomli monografiya nashr etilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** ishda qo'llanilgan nazariy ma'lumotlar va metodlar ishonchli manbalardan olingani, keltirilgan tahlil va mulohazalar, tajriba-sinov ishlari samaradorligini matematik statistik metodlar vositasida asoslangani, xulosa va tavsiyalarning amaliyotga joriy qilingani hamda olingan natijalar vakolatli organlar tomonidan tasdiqlangani bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati, boshlang'ich sinf o'quvchilarining mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishning ahamiyati, mustaqil ta'lim olish

ko'nikmasini shakllantirishga va rivojlantirishga xizmat qiluvchi chet tili talaffuzi va leksikasini o'rgatishdagi mashqlar jamlanmasi xususiyatlari, ularning qiyosiy tahlili bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati** boshlang'ich sinf o'quvchilarining mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish orqali chet tili talaffuzi va leksikasining o'rgatilishi, o'qitishning asosiy va dastlabki bosqichida mustaqil ta'lim olish ko'nikmasining muhim ekanligini ilmiy tadqiqot va tajriba-sinov ishlari orqali ko'rsatish, mashqlar majmuasi, metodik hamda didaktik ta'minoti pedagoglarning malakasini oshirish kurslarida, boshlang'ich sinflarda mustaqil ta'lim ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan amaliy mashg'ulotlarda, shuningdek o'quv-metodik adabiyotlar yaratish jarayonida keng qo'llanishi mumkinligi bilan ahamiyatlidir.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Boshlang'ich sinflarda mustaqil ta'lim ko'nikmasini shakllantirish bo'yicha ilmiy tadqiqot natijalari asosida:

boshlang'ich sinf o'quvchilarining chet tilda leksik minimumni o'zlashtirish jarayonida yuzaga keladigan talaffuz qiyinchiliklarini inobatga olgan holda tavsiya etilgan fonetik minimum tovushlarning pozitsion, oppozitsion, akustik hamda artikulyatsion xususiyatlari va qiyinchiliklari asosida tanlab olinishi mustaqil ta'lim jarayonida o'quvchilarda chet til talaffuzini to'g'ri shakllantirishga xizmat qilishi ilmiy jihatdan asoslab berilganligiga oid taklif va tavsiyalardan O'zbekiston Milliy universitetida bajarilgan A-OT-2021-419-raqamli "Davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini oshirish kursining elektron platformasini yaratish (Pre-school PDP)" mavzusidagi innovatsion loyihasi doirasida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashda foydalanilgan (Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy universitetining 2025-yil 10-fevraldagi 04/11-2398-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, mustaqil ta'limni tashkil qilishda ilmiy jihatdan asoslangan fonetik va leksik minimumlarni yaratish bo'yicha amaliy yechimlar ishlab chiqilgan;

o'quvchilarning chet tilda leksik minimumni mustaqil ta'lim asosida egallashlari uchun "ESSR (English Self-Study Routine)"da maxsus dasturlar orqali video va audiomatnlar ko'rinishida o'rganish imkoniyati yaratilgan bo'lib, mazkur minimumni "virtuallik va vizuallik", shuningdek, "retseptivlik, produktivlik va reproduktivlik integratsiyasi" asosida o'rganish imkoniyatini takomillashtirishga oid takliflardan Qarshi davlat universitetida 2021-2023-yillarda amalga oshirilgan SUZ-800-21GR-381 "Reinforcing English Language Competence at Karshi State University" nomli xalqaro grant loyihasida foydalanilgan (Qarshi davlat universitetining 2025-yil 25-iyundagi 04/2766-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, boshlang'ich sinflarda chet tilni mustaqil ta'lim asosida o'qitishning ahamiyati keng ochib berilgan;

"ESSR (English Self-Study Routine)" elektron ta'lim resursi tarkibida "Glossary" va "Self-testing" bo'limlarining mavjudligi o'quvchilarning mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini rivojlantirish bilan birga, ularda "self-assessment (o'z-o'zini baholash)" hamda "self-correction (o'z-o'zini tuzatish)"

ko'nikmalarining shakllanishiga xizmat qilishi lingvopsixologik va lingvodidaktik yondashuvlar asosida asoslab berilganligiga oid taklif va tavsiyalardan Samarqand davlat chet tillar institutida amalga oshirilgan Yevropa Ittifoqining Erasmus+ 585845 EPP-1-2017-ES-EPPKA2-CBHE-JP "CLASS: Development of the interdisciplinary master program on Computational Linguistics at Central Asian universities" (CLASS: "Markaziy Osiyo Universitetlarida kompyuter lingvistikasi bo'yicha magistratura dasturini ishlab chiqish") nomli innovatsion tadqiqotlar amaliy loyihasi doirasida foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2025-yil 8-fevraldagi 367/02-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, o'quvchilarning mustaqil ta'lim olish jarayonini takomillashtirilishi nazariy va amaliy jihatdan aniqlashtirilgan;

o'quvchilarning mustaqil ta'lim olish jarayonini "ESSR (English Self-Study Routine)" elektron ta'lim resursi asosida rivojlantirishda audiovizual va videovlog shaklida taqdim etilgan materiallarning zamon talablariga mosligi, shuningdek, tarbiyaviy ta'lim, onglilik, faollik, ko'rgazmalilik, sistemalilik, individual yondashuv, puxta o'zlashtirish va o'quvchi potensialiga moslik kabi didaktik tamoyillarning integratsiyalashuvi va o'zaro uyg'unligi o'quvchilarning mustaqil ta'lim olish jarayonini takomillashtirishga xizmat qilishi nazariy va amaliy jihatdan isbotlanganligiga oid ma'lumotlardan Samarqand radiosining "Kun mavzusi" eshittirishi va "Assalom Samarqand" tonggi dasturi ssenariylari uchun foydalanilgan (Samarqand viloyati teleradiokompaniyasi, 2024-yil 3-maydagi 01-07/94 va 01-07/93-sonli ma'lumotnomalari). Natijada, ushbu chiqishi orqali radiotinglovchilar va teletomoshabinlarga chet tilni boshlang'ich sinflarga sifatli o'qitish va o'rgatishning ahamiyati, bunda mustaqil ta'limning tutgan o'rnini xususida ma'lumot berib, dasturlarni mazmunan boyitishga xizmat qildi.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 22 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, 1 ta monografiya, 1 ta dasturiy patent, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 12 ta ilmiy maqola, jumladan, 4 ta respublika va 8 tasi xorijiy jurnallarda nashr qilingan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat bo'lib, asosiy matn 162 sahifani tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish qismida** dissertatsiya mavzusining dolzarbligi asoslangan, tadqiqotning O'zbekiston Respublikasida fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, muammoning o'rganilganlik darajasi, tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalarini bilan bog'liqligi bayon etilgan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari,

shuningdek, obykti va predmeti aniqlangan hamda ilmiy-amaliy ahamiyati, natijalarning ishonchliligi, amaliyotga joriy qilinishi, aprobatsiyasi, e'lon qilinganligi, tuzilishi va hajmi masalalari o'z aksini topgan.

Dissertatsiyaning **“Chet tilni o'qitishda boshlang'ich sinf o'quvchilarining mustaqil ta'lim olish jarayonini shakllantirishning nazariy asoslari”** nomli birinchi bobida boshlang'ich sinflarda ingliz tilini o'qitishning lingvopsixologik va lingvodidaktik asoslari, mustaqil ta'limni tashkil etishning nazariy va amaliy jihatlari, shuningdek, ta'lim samaradorligini oshirishga qaratilgan metodik yondashuvlar tahlil qilinadi. XXI asrda global raqobatning kuchayishi, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining hayotimizga jadal kirib kelishi ta'lim tizimida tub o'zgarishlarni talab qilmoqda. Ayniqsa, chet tillarni o'qitishda mustaqil ta'limga asoslangan yondashuvlar dolzarb masalaga aylangan. Bu jarayon, ayniqsa, yosh o'rganuvchilarning lisoniy va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda, metodik yondashuvlarni takomillashtirishni taqozo etadi. Boshlang'ich ta'lim bosqichida mustaqil til o'rganish – o'quvchining intellektual salohiyatini, mustaqil fikrlash qobiliyatini, madaniy-muloqot kompetensiyasini va til tizimini ongli ravishda egallash ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Chet tilni erta yoshdan boshlab o'rganish zarurligi psixolingvistika, neyropsixologiya, lingvodidaktika va pedagogika fanlari doirasida keng ilmiy asoslangan. Jumladan, I.P.Pavlovning dinamik stereotiplar nazariyasi, L.S.Vygotskiy va A.A.Leontyevning psixologik rivojlanish haqidagi g'oyalari bolaning nutq va tafakkurining shakllanish mexanizmlarini ochib beradi<sup>7</sup>. Bu esa chet tilni o'zlashtirish jarayonida bolaning ona tili bilan bog'liq mavjud nerv-mexanizmlarni hisobga olish zarurligini ko'rsatadi. Ushbu jarayon lingvopsixologik asoslar asosida til o'rgatish metodikasini takomillashtirish uchun muhim zamin bo'lib xizmat qiladi<sup>8</sup>. Zamonaviy lingvodidaktik yondashuvlarda kommunikativ kompetensiyani shakllantirish asosiy maqsad etib belgilanadi. Bunda fonetik, leksik va grammatik bilimlarning real nutqiy vaziyatlarda qo'llanilishi markaziy o'rinni egallaydi. Boshlang'ich sinf o'quvchisiga chet tilni nafaqat aloqa vositasi, balki madaniy xulq-atvor va hissiy ifoda vositasi sifatida o'rgatish zamonaviy ta'lim talablaridandir. Bundan tashqari, yosh o'quvchilarning rivojlanish xususiyatlarini inobatga olgan holda, til o'rganishda multimodal yondashuvlar (formulaik iboralar, almashtiriladigan jadvallar, ko'rgazmalilik, interaktiv o'yinlar) orqali motivatsiyani oshirish, mustaqil fikr ifodalash ko'nikmalarini rivojlantirish ta'lim samaradorligini oshiradi. Ushbu yondashuvlar o'quvchilarda til unsurlarini tanish, solishtirish, umumlashtirish va integratsiyalashgan nutqiy faoliyat asosida egallash imkonini beradi. Ta'limda mustaqil o'zlashtirishni yo'lga qo'yishda J.Jalolov, G.Sh.Tajibayev, N.D.Galskova va N.Z.Nikitenkoning ilmiy ishlari alohida ahamiyat kasb etadi. Ularning izlanishlariga ko'ra, mustaqil o'rganish ko'nikmalarini shakllantirish uchun

<sup>7</sup> Павлов И.П. Лекции о работе главных нервных центров. – М.: Госиздат, 1928.; Выготский Л.С. Мышление и речь. – Москва–Ленинград: Государственное социально-экономическое издательство, 1934. – 324 с.; Леонтьев А.А. Деятельность. Сознание. Личность. – Москва: Политиздат, 1975. – 304 с.

<sup>8</sup> Jalolov J.J. Chet til o'qitish metodikasi: chet tillar oliy o'quv yurtlari (fakultetlari) talabalari uchun darslik. – Toshkent: O'qituvchi, 2012. – 432 b.

o‘quvchilarda o‘z ta‘limiy ehtiyojlarini anglash, strategik fikrlash, o‘z-o‘zini baholash va ta‘limiy reja tuzish salohiyatini rivojlantirish muhimdir. Bu esa o‘quv jarayonida o‘quvchining metodik va psixologik mustaqilligini ta‘minlashni talab etadi. Boshlang‘ich ta‘limda mustaqil ta‘limni rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlar quyidagilardan iborat: tabiiy yoki sun‘iy til muhiti, vizual va eshituv stimullarining uyg‘unligi hamda tarmoqli bilimlar asosida integratsiyalashgan yondashuv. Ingliz tilini amaliy nutq vositasi sifatida taqdim etish, o‘quvchini real kommunikativ muhitga yaqinlashtirish – masalan ssenariy asosidagi dramatik topshiriqlar, multfilmlar, roliklar orqali interaktiv mashg‘ulotlar tashkil etish – mustaqil ta‘lim uchun mustahkam poydevor yaratadi. Chet tilni boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga o‘rgatishda mustaqil ta‘lim jarayonini shakllantirish – transformatsion ta‘lim yondashuvini joriy etishni, o‘qituvchining metodik kompetensiyasini oshirish va o‘quvchining metakognitiv tafakkurini shakllantirish orqali amalga oshiriladi. Bunday yondashuv natijasida o‘quvchilar bilimni passiv egallovchi emas, balki faol, izlanishga qodir, mustaqil til egallovchi shaxs sifatida rivojlanadi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Chet tilni o‘qitishda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining mustaqil ta‘lim olish jarayonini shakllantirish metodologiyasi”** deb nomlanib, ushbu bobda boshlang‘ich sinflarda ingliz tilini o‘qitish jarayonida qo‘llaniladigan metodik yondashuvlar, o‘quv dasturlari va ularga qo‘yilgan talablar keng yoritilgan. Boshlang‘ich sinflarda ingliz tilini o‘qitishda ta‘lim vositalari muhim metodik asos bo‘lib xizmat qiladi. Tarixan har bir davrda ta‘lim vositalari mavjud texnologik imkoniyatlarga mos shakllangan bo‘lsa, bugungi kunda darsliklar, DTS va o‘quv dasturlari o‘quv jarayonining asosiy tayanchiga aylangan. Xususan, Davlat ta‘lim standarti (DTS) A1 “kurtaklash bosqichi”<sup>9</sup> darajasini belgilab, o‘quvchilarda oddiy muloqot, tanishtirish va shaxsiy savollarga javob berish ko‘nikmalarini shakllantirishni nazarda tutadi.

Ushbu standart CEFR asosida ishlab chiqilgan bo‘lib, xalqaro miqyosda til o‘rgatish va baholashda qo‘llaniladigan asosiy hujjat hisoblanadi. CEFR ta‘limda faqat grammatik bilimlarni emas, balki kommunikativ va madaniyatlararo kompetensiyalarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu sababli O‘zbekistonda ham kommunikativ yondashuv, integratsiyalashgan metodlar va o‘quvchining faol ishtirokini rag‘batlantiruvchi metodikalar keng qo‘llanilmoqda. Boshlang‘ich sinflarda zamonaviy metodik vositalardan foydalanish o‘quvchilarni nafaqat bilim bilan qurollantiradi, balki mustaqil fikrlash, muloqotga kirishish va real hayotda tilni qo‘llash kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Boshlang‘ich sinflarda ingliz tilini o‘qitishda o‘quv dasturi muhim metodik hujjat hisoblanadi. “Umumiy o‘rta ta‘lim maktablari uchun chet tili o‘quv dasturi” ta‘lim jarayonining asosiy maqsad va yo‘nalishlarini belgilab beradi. U muqaddima, uqtirish xati, ta‘lim maqsadlari, til materiali, leksik birliklar, fonetik va grammatik minimumlar hamda sinflar bo‘yicha mavzular taqsimotini o‘z ichiga oladi. Dastur CEFR

---

<sup>9</sup> O‘zbekiston Respublikasi. *Chet tili (ingliz, nemis, fransuz va b.) fanidan uzluksiz ta‘lim milliy o‘quv dasturi*. Loyiha. Ta‘lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi, 2021.

asosida ishlab chiqilgan bo‘lib, uning asosiy maqsadi – kommunikativ kompetensiyani shakllantirishdir. O‘qitish mazmuni “nima o‘rganiladi” (til materiali) va “nima qilish o‘rganiladi” (nutqiy malakalar) tamoyillari asosida tashkil etiladi. O‘quvchilar nutq mavzulari orqali atrof-muhit, o‘z vatani va xorijiy mamlakatlar haqida bilimlarga ega bo‘ladi. Shu bilan birga, tinglab tushunish, gapirish, o‘qish va yozuv bo‘yicha ko‘nikma va malakalari shakllantiriladi. CEFR talablariga asoslangan “can do” deskriptorlari bilan bir qatorda, o‘quv dasturiga autentik matnlar, madaniy jihatlar, fonetik va grammatik birliklar ham kiritilgan. Bu tilni nazariy emas, amaliy va madaniy kontekstda egallashga imkon beradi. Ushbu uchta tarkibiy qism chet tilni o‘rganishda yaxlit o‘zlashtirishni taqozo qiladi(1-rasmga qarang):

<b>O‘qitish mazmuni</b>		
<p><b>Nutq mavzulari</b> - o‘qitish maqsadlariga asoslanib tanlanadi. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida «O‘quvchi va uni o‘rab turgan atrof-muhit», «Vatanimiz» va «Tili o‘rganiladigan mamlakatlar» kabi mavzular asosiy nutq mavzulari hisoblanadi. O‘qish uchun siyosiy, badiiy, ilmiy, ma’naviyat va madaniyat hamda sportga oid matnlar tanlanadi .</p>	<p><b>Nutq malakalari</b> - chet tilda nutq faoliyati turlari (tinglab tushunish, gapirish, o‘qish va yozuv)ni egallash darajalari tushuniladi. Malaka o‘quvchilarning chet til o‘rganish davrida olgan ko‘nikmalarini amaliy faoliyatida sobitqadamlik bilan mustaqil ravishda qo‘llay olish kompetensiyasi (layoqati)dir. Nutq malakalari til materialini muloqot paytida qo‘llash jarayonida rivojlanadi va takomillashadi .</p>	<p><b>Til materiali</b> - leksik , grammatik va fonetik hodisalarni o‘z ichiga oladi. O‘quv jarayonida leksik , grammatik , talaffuz hamda imlo birligi kabi tushunchalarni farqlash, darslik va qo‘llanmalar tuzishda ulardan o‘z o‘rnida foydalanish zarur</p>

### **1-rasm. Boshlang‘ich sinflarda chet til o‘qitish mazmuni**

Til materiali tarkibida 1500 ta leksik birlik, asosiy grammatik strukturalar, fonetik va imlo qoidalari mavjud bo‘lib, ular DTSga muvofiq tanlangan. Grammatika induktiv va qisman deduktiv usullar orqali o‘rgatiladi, bu esa o‘quvchining ona tili bilan qiyosiy tahlilga asoslanadi. Boshlang‘ich bosqichdagi o‘zlashtirish darajalari quyidagicha belgilangan (1-jadvalga qarang):

### **1-jadval**

#### **Boshlang‘ich bosqichdagi o‘zlashtirish darajalari**

	<b>Bosqich</b>	<b>Sinflar</b>	<b>Asosiy o‘quv natijalari</b>
<b>1.</b>	<b>1-bosqich</b>	1-sinf	Eshitish va aytilgan so‘zlarni ajrata olish, salomlashish, tanishtirish kabi oddiy muloqot. Vizual yordamsiz tushunish hali sust.
<b>2.</b>	<b>2-bosqich</b>	2-3-sinflar	Nutqiy namunalarni yod olish, rasm va video asosida tushunish. Matnni o‘qib tushunish va sodda gap tuzish. Savol-javob shaklida dialog olib borish.
<b>3.</b>	<b>3-bosqich</b>	4-sinf	Mavzuga doir mustaqil fikr bildirish, 3–4 jumladan iborat matn yozish, eshitilgan matndan asosiy ma’lumotni ajratish, oddiy og‘zaki bayon qilish.

Shuningdek, fonetik va grammatik minimumlar nomma-nom berilgan bo‘lsa-da, leksik birliklar miqdor jihatdan belgilangan. Dasturda har bir sinf oxirida egallanishi kerak bo‘lgan leksik birliklar ro‘yxati va baholash mezonlari (testlar) ilova qilinishi uning samaradorligini yanada oshirishi mumkin. Boshlang‘ich sinflarda ingliz tilini o‘rgatishga mo‘ljallangan o‘quv dasturi til materialini

bosqichma-bosqich va integratsiyalashgan holda o'zlashtirishga yo'naltirilgan. U o'quvchining nutqiy faolligini, mustaqil fikrlash va muloqot qilish qobiliyatini shakllantirishda muhim o'quv-metodik vosita sifatida xizmat qiladi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari jadal rivojlanayotgan davrda ta'lim sifati ko'p jihatdan darsliklar sifati bilan belgilanmoqda. Ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun yaratilgan darslik-majmualar nafaqat bilim manbai, balki o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi didaktik ko'priq sifatida xizmat qiladi. Ular o'quvchilarda mustaqil va ijodiy fikrlash, kommunikativ faoliyat va tilga bo'lgan qiziqishni shakllantiradi. Darsliklar tarkibiga o'quvchi kitobi, metodik qo'llanma, mashq daftari, audio-video materiallar, interaktiv ilovalar va veb-sahifalar kiradi. Elektron darsliklar animatsiya, o'yinli topshiriqlar va virtual muloqot vositalari orqali o'quv faoliyatini faollashtiradi. "Guess What" darsligi CEFR va DTS talablariga mosligi, yoshga xos psixologik yondashuv va multimedia imkoniyatlari bilan ajralib turadi. Psixolingvistik yondashuvga ko'ra so'z va predmet o'rtasidagi bog'liqlik ko'rgazmali vositalar orqali mustahkamlanadi. Real kontekst va o'quvchining hayotiy tajribasi bilan bog'langan o'quv materiallari esa semantik anglashni kuchaytiradi. Chet tilni o'rganishda interferensiya – ona tilning salbiy ta'siri muhim muammo bo'lib, ayniqsa grammatik jihatlarda (artikl, predlog, yordamchi fe'l, so'z tartibi) ko'zga tashlanadi. Masalan, "look at the board" ifodasidagi predlog va kelishik mosligi o'zbek tilida muqobilga ega emas. Bu muammoni bartaraf etishda J.Asherning TPR (Total Physical Response) usuli va R.Lado ilgari surgan kontrastiv tahlil yondashuvi muhim ahamiyatga ega. So'nggi tadqiqotlar esa grammatik xatolarning sababi nafaqat interferensiya, balki metodik yondashuv, motivatsiya va umumlashtirishdagi xatolarga borib taqalishini ko'rsatmoqda (masalan: "bused" – overgeneralization). Shu bois, kontekstual, harakatga asoslangan va semantik asosli metodlar orqali til o'rganish samaradorligini oshirish mumkin. Zamonaviy darsliklar va ular asosidagi metodik tizim boshlang'ich sinf o'quvchilarining lingvistik, kommunikativ va psixologik kompetensiyalarini rivojlantirishda asosiy vosita hisoblanadi. Chet tilni o'qitish mazmuni esa innovatsion, shaxsga yo'naltirilgan va kommunikativ yondashuvlar asosida modernizatsiya qilinmoqda.

Bu kompetensiya nazariy bilimlar (fonetika, leksika, grammatika) va amaliy ko'nikmalar (tinglash, gapirish, o'qish, yozish) uyg'unligiga asoslanadi. Bu kompetensiyalar quyidagicha guruhlanadi (2-jadvalga qarang):

**2-jadval**

**Kompetensiyalar turlari**

<b>Kompetensiyalar turlari</b>	
<b>Lingvistik kompetensiya</b>	fonetika, leksika va grammatika asosida nutq faoliyati turlarini egallash;
<b>Sotsiolingvistik kompetensiya</b>	nutqiy vaziyat va madaniy kontekstga mos til birliklarini tanlash, urf-odatlar, qadriyatlar va ijtimoiy-madaniy tafovutlarni anglay olish qobiliyati;
<b>Pragmatik kompetensiya</b>	kommunikativ muammoli vaziyatlarda to'g'ri yo'l topish, jumladan, uzr so'rash, tushunmagan holatni qayta so'rash va izchillikni saqlagan holda fikr bildirish (diskurs kompetensiyasi bilan uyg'unlashgan holda).

Boshlang'ich sinflarda til o'rgatish faqat til elementlarini emas, balki o'quvchilarda madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini ham shakllantiradi. Bu esa metodik jihatdan integratsiyalashgan ta'lim modelini talab qiladi.

Umumiy o'rta ta'limning boshlang'ich sinf o'quvchilari egallaydigan A1 daraja uchun 500 ta aktiv leksik birlik hamda A1+ daraja uchun 650 ta aktiv leksik birlikni nutqda o'zlashtiradilar (3-jadvalga qarang):

**3-jadval**

**Leksik birliklar**

<b>№</b>	<b>Sinflar</b>	<b>1-sinf</b>	<b>2-sinf</b>	<b>3-sinf</b>	<b>4-sinf</b>
1.	Aktiv (A1)	150	150	100	100
2.	Aktiv (A1+)	150	200	150	150
3.	Passiv	-	-	-	-
4.	Potensial	-	-	+	+
<b>Jami (A1)</b>		<b>150</b>	<b>300</b>	<b>400</b>	<b>500</b>
<b>Jami (A1+)</b>		<b>150</b>	<b>350</b>	<b>500</b>	<b>650</b>

O'quv dasturining yillik dars soatlari va mavzulari "Guess What" darsliklari bilan uzviy bog'langan bo'lib, uyga vazifalar orqali mustaqil ta'limni rag'batlantiruvchi topshiriqlar ham tizimli tarzda berilgan. 1–4-sinflar uchun yillik dars soatlari va mavzularning mosligi darslik mazmuni bilan bog'langan bo'lib, murakkablik darajasi sinf o'sib borgani sari ortadi. Darsdan tashqari faoliyat, xususan uy vazifalari, vizual o'yinlar va interaktiv topshiriqlar o'quvchilarda mustaqil fikrlash, nutqiy faollik va eslab qolish kompetensiyalarini shakllantiradi (4-jadvalga qarang):

**4-jadval**

**"Guess What" darsliklarida mashq turlari (tinglab tushunish, o'yinlar, mustaqil topshiriqlar)**

<b>№</b>	<b>Darslik</b>	<b>Jami mashq</b>	<b>Tinglab tushunish</b>	<b>O'yinli faoliyat</b>	<b>Kuchli o'quvchilar</b>	<b>Jismoniy faoliyat</b>	<b>Uy topshiriqlari</b>
1.	<b>Guess What 1</b>	465	185	142	45	42	50
2.	<b>Guess What 2</b>	478	185	152	39	47	55
3.	<b>Guess What 3</b>	485	185	154	40	56	50
4.	<b>Guess What 4</b>	502	205	152	100	45	

Mazkur tahlil natijalariga ko'ra, bu darsliklar mustaqil ta'limga tayyorlovchi zamonaviy vosita bo'lib xizmat qilmoqda. Ayniqsa, uyda bajariladigan ijodiy topshiriqlar o'quvchining o'z-o'zini boshqarish ko'nikmasini rivojlantiradi. Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, amaliyotda mustaqil ta'limni tashkil etishga doir metodik qo'llanmalar, baholash mezonlari va o'qituvchi tayyorlov kurslarida bu yo'nalishga yetarli e'tibor qaratilmagan. Bu esa, mavjud salohiyatdan to'liq foydalanishga to'sqinlik qilmoqda. "Guess What" darsliklari boshlang'ich ta'limda

mustaqil ta'limni shakllantirish uchun pedagogik, lingvistik va texnologik asoslarni taqdim etadi. Biroq bu salohiyatdan to'laonli foydalanish uchun alohida metodik yondashuvlar, baholash mezonlari va o'qituvchilarni tayyorlash tizimini takomillashtirish zarur. Ana shunda boshlang'ich bosqichdan boshlab o'quvchilarni kommunikativ, madaniy va ijodiy rivojlantirishga zamin yaratiladi. Bugungi kunda raqobatbardosh, mustaqil fikrlovchi va axborotga ega shaxslarni tayyorlash zamonaviy ta'limning ustuvor vazifasiga aylangan. Ayniqsa, boshlang'ich sinflarda mustaqil ta'limni shakllantirish, o'quvchilarning bilimni izlab topish, tahlil qilish va amalda qo'llash ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. Mustaqil ta'lim – bu o'quvchining individual tezligi, qiziqishi va ijtimoiy faolligiga tayangan holda bilim olish jarayonidir<sup>10</sup>. Boshlang'ich sinfda mustaqil ta'limni tashkil etish o'quvchining nafaqat bilim olishi, balki shaxsiy o'sishi, kasbiy tayyorgarligi va intellektual salohiyatini shakllantirishga xizmat qiladi. O'quvchi mustaqil ishining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat: yangi bilimlarni mustaqil tarzda puxta o'zlashtirish; ma'lumotlarni izlab topish, samarali usul va vositalarni aniqlash; axborot manbalaridan, ilmiy-adabiy va me'yoriy hujjatlardan foydalanish; elektron darsliklar va internet tarmog'i bilan ishlash; ratsional yechimlar ishlab chiqish va ma'lumotlar tahlili; topshiriqlarni tizimli va ijodiy bajarish; ilmiy axborotni mustaqil izlab topish va amaliy topshiriqlarni yakka holda bajara olish; mustaqil ishlarni omma oldida himoya qilish ko'nikmasini shakllantirish. Mustaqil ta'limda shakllantiriladigan yo'nalishlar: 1. G'oyaviy (dunyoqarash) yo'nalish: axloqiy poklik, fuqarolik mas'uliyati, ijtimoiy faollik; 2. Kasbiy yo'nalish: kasbiy madaniyat, ijodiy tafakkur, yangilikka ochiqlik, qat'iylik; 3. Bilish (kognitiv) yo'nalish: ilmiy bilishga qiziqish, shaxsiy faollik, mustaqil tafakkur va yangilikni ilg'ash. Bu yo'nalishlar mustaqil ta'limni shaxsiy o'sish va kasbiy shakllanishning asosi sifatida qarashga imkon yaratadi. Mustaqil ishlar orqali o'quvchi o'z-o'zini baholash, qaror qabul qilish, tanqidiy va tahliliy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Mustaqil ta'lim faqat bilim emas, balki shaxsiy dunyoqarash, kasbiy madaniyat va bilishga intilish motivatsiyasini ham rivojlantiradi (5-jadvalga qarang):

## 5-jadval

### O'qituvchining mustaqil ta'limdagi roli

№	O'qituvchi vazifasi	Izoh
1.	<b>Topshiriqni aniqlashtirish</b>	O'quvchiga aniq vazifa qo'yish, yo'nalish berish
2.	<b>Metodik yordam ko'rsatish</b>	Reja tuzish, adabiyotlar tanlash, individual maslahat berish
3.	<b>Jarayonni kuzatish va baholash</b>	Faoliyatni nazorat qilish, rag'batlantirish, baholash
4.	<b>Gumanistik yondashuvni shakllantirish</b>	O'quvchi shaxsiga hurmat, mustaqil fikrlashga yo'l ochish

<sup>10</sup> Гальскова Н.Д. Современная методика обучения иностранным языкам: Пособие для учителей. – Москва: АРКТИ, 2004. – 192 с.

O‘quvchining yoshi, tayanch bilimlari va qiziqishlarini inobatga olgan holda ularda tashabbuskorlik, axborotni izlash va ifodalash ko‘nikmalarini shakllantirish muhimdir. Boshlang‘ich sinflarda mustaqil ta‘limni rivojlantirish ta‘lim sifatini oshirib, o‘quvchilarni kelajak faoliyatiga tayyorlaydi. Bu jarayon o‘z-o‘zini boshqarish, ijodkorlik, mustaqil fikrlash va muloqot kompetensiyalarini rivojlantiradi. O‘qituvchi metodik rahbar sifatida mustaqil ta‘limni bosqichma-bosqich tashkil etib, kommunikativ va axborot savodxon shaxsni shakllantirishga xizmat qiladi. Mustaqil ta‘lim o‘quv jarayonining ajralmas qismi bo‘lib, o‘quvchining fikrini mustaqil bayon qilish va tahliliy yondashuvini ta‘minlaydi hamda yosh va bilim darajasiga mos, shaxsiylashtirilgan o‘rganish muhitini yaratadi (6-jadvalga qarang):

**6-jadval**

**Nutqiy faoliyat turlarining bosqichma-bosqich rivoji**

<b>№</b>	<b>Sinf</b>	<b>Asosiy urg‘u beriladigan faoliyatlar</b>	<b>Integratsiya darajasi</b>
<b>1.</b>	<b>1-sinf</b>	Tinglab tushunish, talaffuz, og‘zaki nutq	Yozish va o‘qish faolligi cheklangan
<b>2.</b>	<b>2-sinf</b>	Tinglash, o‘qish, oddiy yozuv, so‘zlash	To‘rt faoliyat integratsiyasi boshlanadi
<b>3.</b>	<b>3-sinf</b>	Matn o‘qish, jumla yozish, dialoglar, mavzulashtirilgan nutq	Har bir mashqda 2–3 kompetensiya uyg‘un
<b>4.</b>	<b>4-sinf</b>	Monolog, hikoya yozish, og‘zaki bayon, qiyosiy tahlil	To‘liq integratsiya, mustaqil ifoda

Bu jadvallarda ko‘rinib turibdiki, nutqiy kompetensiyalar (tinglash, so‘zlash, o‘qish, yozish) har sinfda bosqichma-bosqich kengaytiriladi. Ayniqsa, 1-sinfda fonetik va og‘zaki qabul qilish ustuvor bo‘lsa, 2–4-sinflarda bu kompetensiyalar birgalikda rivojlantiriladi. Masalan, 2-sinf “Transportation” yoki “Meals” mavzulari asosida o‘quvchi bir vaqtning o‘zida eshitadi, o‘qiydi, yozadi va gapiradi. Bu yondashuv o‘quvchini murakkab til vaziyatlariga tayyorlashda asosiy omil sifatida xizmat qiladi. Mustaqil ta‘lim faoliyati shakllarining xilma-xilligi, metodik mosligi va texnologik integratsiyasi boshlang‘ich ta‘limda mustaqil fikrlovchi, axborotga ega va ijodkor shaxsni shakllantirishda muhim omil bo‘ladi. O‘qituvchining rahbarlik vazifasi, kompetensiyaviy yondashuv, elektron resurslardan foydalanish va mustaqil baholash mezonlari bu jarayonni samarali tashkil etishga xizmat qiladi. Shunday qilib, har bir o‘quvchi shaxsiy o‘shish yo‘lini mustaqil bosib o‘tish imkoniga ega bo‘ladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining mustaqil ta‘limida eng ko‘p uchraydigan muammolardan biri – bu fonetik qiyinchiliklar, xususan ingliz tiliga xos tovushlarni to‘g‘ri talaffuz qila olmaslikdir. Ayniqsa, o‘zbek tilida mavjud bo‘lmagan [θ], [ð], [ʒ], [w], [r], [ə], [ɜ:], [ʊ], [æ] kabi tovushlarni o‘zlashtirishda sezilarli qiyinchiliklar kuzatilgan (7-jadvalga qarang):

## Talaffuzi qiyin bo'lgan tovushlar va ularni taqdim qilish bosqichlari

Fonetik minimumni taqdim qilish va o'zlashtirish bosqichlari	Artikulyatsion qiyinchilikka ega tovushlar	Pozitsion qiyinchilikka ega tovushlar	Oppozitsion qiyinchilikka ega tovushlar	Akustik qiyinchilikka ega tovushlar
Tovushlarni yakka holda talaffuz qilish	[θ], [ð], [r], [w], [t], [d], [v], [ə], [ʊ], [æ]	[ɪə], [eə], [əʊ], [aʊ]	[θ], [ð], [r], [w], [t], [d], [v], [ɜ:], [a:], [ɔ:], [u:]	[θ], [ð], [ɜ], [w], [r], [ə], [ɜ:], [ʊ], [æ]
Tovushlarni so'zlar tarkibida talaffuz qilish	[θ]-thin, math, [ð]-this, that, [r]-right, round, [w]-what, why, [t]-tea, tree, [d]-dull, sad, [v]-vase, violin, [ə]- teacher, about, [ʊ]- good, foot, [æ]-apple, lamb	[ɪə]-year, bear, [eə]-chair, air, [əʊ]-joke, vote, [aʊ]-loud, out,	[θ]-earth, thigh, [ð]-mother, father, [r]-run, worry, [w]-wound, with, [t]-tall, tell, [h]-head, hard, [v]-vote, save, [ɜ:]-girl, nurse, [a:]-dark, fast, [ɔ:]-door, four, [u:]-food, rule,	[θ]-thick, bath, [ð]-teeth, they, [ɜ]-pleasure, leisure, [w]-well, win, [r]-robot, brush, [ə]-above, worker, [ɜ:]-fur, [ʊ]-pull, full, [æ]-head, lamp
Tovushlarni jumla tarkibida talaffuz qilish	[θ]-I like math. [ð]-This is me. [r]-It is a round table. [w]-What is your name? [t]-She likes a green tea. [d]-I am sad! [v]-It is a red vase. [ə]- She is my teacher. [ʊ]- He is good. [æ]-He likes an apple.	[ɪə]-It is a big bear. [eə]-It is a small chair. [əʊ]-It is a joke! [aʊ]-Go out!	[θ]-It is a thigh. [ð]-He is my mother. [r]-Don't worry! [w]-I play with you! [t]-Can you tell me? [h]-I am hardworking. [v]-Say it for me! [ɜ:]-She is a clever girl. [a:]-I can run fast. [ɔ:]-Open the door! [u:]-Eat your food!	[θ]-It is a thick book. [ð]-I brush my teeth. [ɜ]-Do it with pleasure! [w]-Well done! [r]-I like my robot. [ə]-My dad is a worker. [ɜ:]-I am a nurse. [ʊ]-I am full. [æ]-Turn on the lamp.

Bu fonetik to'siqlarni yengishda bosqichma-bosqich o'rgatish yondashuvi samarali ekani tasdiqlandi. Ya'ni, avval tovush alohida holatda o'zlashtiriladi, so'ng so'z tarkibida, keyin esa gap va matn kontekstida mashq qilinadi. Ushbu jarayonda intonatsion va artikulyatsion mashqlar mustahkamlovchi vosita sifatida qo'llaniladi.

Ingliz tilini o'qitishda fonetik qiyinchiliklar – ayniqsa boshlang'ich bosqichda – e'tibordan chetda qolmasligi zarur. Nutq faoliyati turlarining izchil va bosqichma-bosqich shakllanishi, ayniqsa talaffuzni shakllantirishga qaratilgan maxsus metodik yondashuvlar va mustaqil ta'lim topshiriqlari orqali samarali yo'lga qo'yilishi lozim. Bunday topshiriqlar o'quvchining uy sharoitida mustaqil mashq qilishini emas, balki real til muhitida faol muloqotga kirishish ko'nikmasini rivojlantirishga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.

Zamonaviy ta'lim jarayoni innovatsion texnologiyalar bilan boyib, an'anaviy o'qitish usullaridan raqamli, interfaol o'quv muhitiga o'tmoqda. Ayniqsa, boshlang'ich sinflarda mustaqil ta'limni shakllantirishda elektron ta'lim resurslari bilim oluvchidan – faol izlanuvchi, mustaqil tahlil qiluvchi va mulohaza yurituvchi subyektga aylantiradi. "Elektron ta'lim resursi" tushunchasi o'quv jarayonini tashkil etishga xizmat qiluvchi, raqamli shaklda taqdim etilgan matn, rasm, audio, video, grafik, test va modellashtirilgan materiallar majmuini anglatadi. Ular oddiy telefon yoki kompyuter qurilmasi orqali ko'rish, eshitish, bajarish va baholash imkonini beradi (8-jadvalga qarang):


**Elektron ta'lim resurslarning asosiy vazifalari**

<b>Elektron ta'lim resurslarning asosiy vazifalari</b>	– mustaqil ta'lim jarayonini umumiy, yaxlit ishlab chiqish;
	– mustaqil ta'limni tashkil etish jarayonida hal etilishi lozim bo'lgan aniq maqsad va vazifalarni belgilash;
	– mustaqil ta'limni tashkil etish jarayoni mazmunini ishlab chiqish;
	– mustaqil ta'limni tashkil etish jarayonida ta'lim oluvchining erkin, mustaqil faoliyat ko'rsatish uchun muayyan shart-sharoitlarni yaratish hamda maxsus bilimlarni shakllantirish;
	– ta'lim oluvchilar faoliyatini nazorat qilish hamda baholashni tashkil etish;
	– kadrlar tayyorlash milliy dasturi maqsadi va vazifalarini ro'yobga chiqarish;
	– fan-texnika taraqqiyotidagi axborotlarni yoshlarga yetkazishni tezlashtirish.

Hozirgi ta'lim tizimi axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining integratsiyasi orqali uzluksiz takomillashmoqda. Bu jarayonda elektron ta'lim resurslari o'quvchilarning bilimga bo'lgan qiziqishini oshirish, ularning mustaqil o'rganish faolligini kuchaytirish, ta'lim jarayonini interfaol va shaxsga yo'naltirilgan tarzda tashkil etish imkonini yaratmoqda. Ana shunday innovatsion yechimlardan biri bu – “English Self-Study Routine” (ESSR) elektron ta'lim resursidir. Tadqiqot doirasida yaratilgan ESSR resursi aynan boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun mo'ljallangan bo'lib, mustaqil ta'limni metodik, texnologik va didaktik jihatdan qo'llab-quvvatlovchi raqamli platforma sifatida ishlab chiqilgan. U quyidagi pedagogik vazifalarni hal etishga qaratilgan: 1. mustaqil bilim olishni modellashtirish; 2. leksik, fonetik va grammatik bilimlarni mustahkamlash; 3. tahliliy va ijodiy fikrlashni rivojlantirish; 4. o'qituvchi, o'quvchi va ota-ona o'rtasidagi hamkorlikni faollashtirish. ESSR resursining asosiy tarkibiy komponentlari: 1. Mazmuni bo'yicha: testlar, lug'atlar, topshiriqlar, seminar shaklidagi amaliy mashqlar va ijodiy topshiriqlar (boshqotirmalar, rasm asosida hikoya tuzish, qiyosiy tahlil mashqlari); 2. Texnologik jihatdan: multimediali (video, animatsiya), interaktiv, vizual-didaktik shakllar; internet orqali onlayn hamda oflayn rejimda foydalanish imkoniyati; qurilmalar: kompyuter, planshet, mobil telefon, elektron doska. Baholash vositalari: darajali testlar, qisqa savol-javoblar, refleksiya yozuvlari; metakognitiv yondashuv: taqqoslash, sintez, xulosa chiqarish. “English Self-Study Routine” (ESSR) elektron ta'lim resursini yaratish modeli texnologik jihatdan kompetensiyaga asoslangan, shaxsga yo'naltirilgan, kommunikativ, metakognitiv, integrativ, multisensor va gamifikatsion yondashuvlar asosida takomillashtirilgan bo'lib, u Y.Y. Markovanning<sup>11</sup> ilgari surgan nazariy modeli asosida ishlab chiqilgan (1-modelga qarang):

Mashqlar tizimi bosqichma-bosqichlilik prinsipiga asoslanib, so'zlarni o'rganish, fonetik mashqlar, tez aytishlar, interaktiv testlar va reflektiv savollarni qamrab oladi. ESSR modeli “British Council”, “BBC Learning English” va “FluentU” platformalari tajribasiga tayangan holda ishlab chiqilib, kontentning fonetik va metodik ishonchligini ta'minlaydi. “English Self-Study Routine” elektron resursi chet tilini o'rganish vositasi bo'lish bilan birga, o'quvchining mustaqil o'rganish, tahlil qilish va fikrlash jarayonini interfaol va tizimli tashkil etuvchi, shaxsga yo'naltirilgan zamonaviy o'quv platformasi hisoblanadi.

<sup>11</sup> Ю.Ю.Маркова Методика развития умений письменной речи студентов на основе вики-технологии: Дисс. ... канд. пед. наук. – Тамбов, 2011. – 187 с.



### **1-model. Chet tilni o'qitishda boshlang'ich sinf o'quvchilarining mustaqil ta'lim ko'nikmalarini shakllantirish modeli**

Dissertatsiyaning “**Pedagogik tajriba-sinov ishlarini tashkil etish va o'tkazish**” nomli uchinchi bobi boshlang'ich sinf o'quvchilarida ingliz tilini, xususan talaffuz va leksik ko'nikmalarni mustaqil ta'lim asosida shakllantirish samaradorligini aniqlashga qaratilgan pedagogik tajriba-sinov ishlariga bag'ishlangan. Tajriba-sinov ishlari Samarqand, Jizzax va Qashqadaryo


viloyatlaridagi 6 ta umumta'lim maktabida tashkil etilib, unda jami 860 nafar boshlang'ich sinf o'quvchisi ishtirok etdi. Shundan 427 nafari tajriba guruhi, 433 nafari nazorat guruhini tashkil etdi. Tajriba-sinov jarayoni diagnostik, shakllantiruvchi, nazorat va statistik-tahliliy bosqichlar asosida olib borildi. Diagnostik bosqichda o'quvchilarning ingliz tiliga bo'lgan qiziqishi, dastlabki bilim darajasi, shuningdek talaffuz va leksik minimumni egallash holati maxsus testlar yordamida aniqlandi. Dastlabki natijalar tajriba va nazorat guruhlari o'rtasida sezilarli farq mavjud emasligini ko'rsatdi (har ikki guruhda qoniqarsiz natijalar 43 % atrofida), bu esa tajriba-sinov ishlarining obyektivligini ta'minladi. Shakllantiruvchi bosqichda 7–10 yoshli o'quvchilar uchun ishlab chiqilgan “English Self-Study Routine (ESSR)” elektron didaktik qo'llanmasi asosida mashg'ulotlar tashkil etildi. Mashg'ulotlar haftasiga ikki marotaba, jami 72 ta 30 daqiqalik darslar ko'rinishida olib borilib, tovush, so'z, gap, dialog, she'r va qo'shiqlar asosida o'quvchilarning mustaqil ta'lim faoliyati izchil yo'lga qo'yildi. Yakuniy nazorat bosqichida olingan natijalar tajriba guruhida sezilarli ijobiy o'zgarishlar yuz berganini ko'rsatdi. Jumladan, tajriba guruhida a'lo va yaxshi baholar ulushi 65 % ga yetdi, qoniqarsiz baholar esa 5 % gacha kamaydi. Nazorat guruhida esa qoniqarsiz natijalar 34 % darajasida saqlanib qoldi. Talaffuz minimumining mustaqil o'zlashtirilishi bo'yicha tajriba guruhida qoniqarsiz ko'rsatkichlar 53 % dan 5 % gacha, leksik minimum bo'yicha esa 55 % dan 4 % gacha kamaygani aniqlandi. Olingan natijalar matematik-statistik tahlil qilinib, tajriba guruhidagi o'rtacha o'zlashtirish darajasi 72 %, nazorat guruhida esa 58,6 % ni tashkil etgani belgilandi. Natijada, tajriba guruhida o'qitish samaradorligi nazorat guruhiga nisbatan 12,7 % ga yuqori ekanligi ilmiy jihatdan isbotlandi. Standart xatolik va variatsiya koeffitsientlari tajriba natijalarining barqaror va ishonchli ekanligini tasdiqladi. Olingan natijalar tahlili shuni ko'rsatadiki, o'qitish samaradorligini baholash me'zoni birdan katta, bilish darajasini baholash me'zoni esa noldan katta qiymatga ega, bu esa tadqiqot doirasida qo'llanilgan metodikaning samarali ekanligini tasdiqlaydi. Shuningdek, tajriba guruhi o'quvchilarining tajriba yakunidagi o'zlashtirish ko'rsatkichlari nazorat guruhi hamda tajriba boshidagi natijalarga nisbatan sezilarli darajada yuqori ekanligi aniqlandi. Tajriba va nazorat guruhlariidagi o'quvchilarning o'rtacha o'zlashtirish ko'rsatkichlari Styudent-Fisher mezoniga asoslanib matematik-statistik jihatdan tahlil qilindi. Tadqiqotda ikki bosh to'plam qaraldi: birinchisi tajriba boshidagi va tajriba yakunidagi o'quvchilarning bilim darajasining o'rtacha ballarini, ikkinchisi esa tajriba guruhi va nazorat guruhi o'quvchilarining bilim darajasining o'rtacha ballarini ifodaladi. Baholash natijalari normal taqsimotga ega deb qabul qilindi, chunki normal taqsimotga yaqinlashish shartlari bajarilgan (9-jadvalga qarang):

### 9-jadval

#### Umumiy mustaqil o'zlashtirish darajasi

Guruhlar	O'quvchilar soni	O'zlashtirish darajalari		
		Yuqori	O'rta	Past
Tajriba guruhi	427	157	180	90
Nazorat guruhi	433	88	157	188

9-jadval ma'lumotlariga ko'ra, umumiy mustaqil o'zlashtirilish darajasi tajriba guruhida sezilarli darajada yuqori ekanligi aniqlandi. Jumladan, tajriba guruhida 427 nafar o'quvchining 157 nafari yuqori, 180 nafari o'rta va 90 nafari past darajada o'zlashtirgan bo'lsa, nazorat guruhida 433 nafar o'quvchining atigi 88 nafari yuqori, 157 nafari o'rta va 188 nafari past darajada natija ko'rsatdi. Bu ko'rsatkichlar tajriba guruhida yuqori va o'rta darajadagi o'zlashtirish ulushi ustunligini yaqqol tasdiqlaydi (1-rasmga qarang):



### 1-rasm. Tajriba-sinov o'tkazilgan maktablar bo'yicha tajriba yakunidagi umumiy natijalar diagrammasi

1-rasmda tajriba-sinov o'tkazilgan maktablar kesimida tajriba yakunidagi umumiy natijalar diagramma ko'rinishida aks ettirilgan bo'lib, unda barcha hududlar bo'yicha tajriba guruhlarining natijalari nazorat guruhlariga nisbatan barqaror va yuqori ekanligi yaqqol namoyon bo'ladi. Diagramma jadval ma'lumotlarini vizual jihatdan tasdiqlab, mustaqil ta'limga asoslangan yondashuvning samaradorligini ko'rsatadi. Xulosa qilib aytganda, o'tkazilgan pedagogik tajriba-sinov ishlari natijalari boshlang'ich sinf o'quvchilariga ingliz tilini o'qitishda mustaqil ta'limga asoslangan "English Self-Study Routine (ESSR)" elektron didaktik qo'llanmasidan foydalanish o'quvchilarning bilim darajasi va o'zlashtirish samaradorligini o'rtacha 12,7 % ga oshirishini ilmiy-eksperimental hamda statistik jihatdan asoslab berdi.

## XULOSA

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ingliz tili darslarida mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishda qo'llaniladigan elektron ta'lim resursi audio-video materiallari yuzasidan ishlab chiqilgan mashqlarning qo'llanilishi bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijalari quyidagi xulosalarni chiqarishga asos bo'ldi:

1. Boshlang'ich sinf o'quvchilarning mustaqil ta'lim olish jarayonini tashkil qilish, mustaqil ta'lim bajarilishi monitoringini olib borish, nazorat turlarini amalga oshirish va ularni xolis baholash mustaqil ta'limning muhim me'zonlaridandir. Bunda ta'lim maqsadlari aniq belgilangan holda, savol va topshiriqlar talabalarning psixologiyasi, yoshiga va qiziqishlariga mos ravishda tanlanishi, uslubiy ta'minot bilan ta'minlanishi va bajarilishi kerak, shunda ta'limda mustaqil ta'lim integratsiyasiga va ta'lim jarayoni optimizatsiyasiga erishiladi.

2. Boshlang'ich sinflarda mustaqil ta'limni tashkil etish samaradorligini oshirish va o'quvchilarni obyektiv me'zonlar asosida baholash, o'quvchilarda chet tilni mustaqil o'rganishga bo'lgan ichki motiv oshishiga va har bir topshiriqni o'z vaqtida kreativ tarzda bajarishga undaydi, bu esa mustaqil ta'lim ko'nikmasini shakllanib rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

3. Chet tilni o'qitishda ta'limning barcha bosqichlarida mustaqil ta'lim ko'nikmasining mavjudligi o'ziga xos ahamiyatga ega. Boshlang'ich sinflarda chet tilni o'qitishda mustaqil ta'limga ko'p vaqt ajratilishi, o'quvchilar va o'qituvchilar uchun ham birdek muhimdir. Baholashda obyektivlik va mustaqil ta'lim natijasiga berilgan munosib motivatsiya o'quvchilarni mustaqil bilim olishga undaydigan asosiy unsurlardan ekanligi doimo inobatga olinishi lozim.

4. O'quvchilarning mustaqil ishlash ko'nikmasi uning iqtidori, intilishi, izlanuvchanligi, qobiliyati va salohiyati bilan belgilanadi. Shuning uchun ham mustaqil ta'lim soatlarini dasturlar va darsliklarda alohida soatlar bilan belgilab qo'yilishi, o'quvchilarning ta'limning ilk bosqichidanoq o'z ustida mustaqil ishlash ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishga xizmat qiladi.

5. Boshlang'ich sinflarda mavjud ish reja va dasturlarda ingliz tili fani bo'yicha har bir darsda, sinfda va sinfdan tashqarida bajariladigan mustaqil ta'lim mashg'ulotlari alohida berilishi lozim, ushbu bajarilgan mustaqil ishlar alohida baholash me'zonlari asosida baholanishi, ushbu me'zon sinf va uy ishi mashg'ulotlarini baholashdan butunlay farq qilishi lozim. Ushbu baholash me'zoni uchun tadqiqot davomida taklif etilgan "Uch darajali" baholash me'zonidan foydalanish tavsiya etiladi.

6. Mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarining shakllanishi va rivojlanishi o'quvchilarda nafaqat ta'limiy, balki, lisoniy, ijodkorlik, mantiqiy va tanqidiy fikrlash kabi hayotning eng muhim ko'nikmalarining ham shakllanib rivojlanishiga xizmat qiladi. Bundan kelib chiqadiki, mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini ta'limning ilk bosqichidanoq shakllantirish juda muhim.

7. Ushbu xulosalar mustaqil ta'limni tashkil etishda va baholash jarayonlarida samara beradigan asosiy omillarni ochib beradi. Mustaqil ta'lim topshiriqlarini talabalarning qobiliyati, shaxsiy xislatlari, bilim darajasiga qarab ishlab chiqish lozim. Mustaqil ta'limni baholashda belgilangan baholash me'zoni asosida yondashish, o'quvchi mehnatini munosib baholash, uning shaxsini hurmat qilish ko'nikmalarining shakllanishi va rivojlanishida muhim belgilardandir.

8. Ta'limning boshlang'ich bosqichida ingliz tilini o'qitishda mustaqil ta'lim ko'nikmasini shakllantirish va rivojlantirish bo'yicha ishlab chiqilgan metodik, didaktik ta'minotlarni tajriba-sinovdan o'tkazish va taklif etilgan "English Self-Study Routine" elektron ta'lim resursi o'quvchilarda mustaqil ta'lim ko'nikmalarining shakllanishi va rivojlanishiga xizmat qildi.

9. Tajriba sinfining ko'rsatkichi nazorat sinfinikiga nisbatan 12,7%ga oshganligini ko'rish mumkin. O'tkazilgan tajriba-sinov natijalaridan kuzatilgan 12,7% o'sish ko'rsatkichi maktab o'quvchilarining mustaqil ta'lim ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishda elektron ta'lim resursi mashqlaridan foydalanish o'quvchilarda ingliz tilida talaffuz va leksik minimumini mustaqil ta'lim orqali o'zlashtirilishiga yordam berishini tasdiqladi.

**РАЗОВЫЙ НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПРИ НАУЧНОМ СОВЕТЕ  
PhD.03/2025.27.12.Fil.37.02 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ  
ПРИ САМАРКАНДСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ ИНСТИТУТЕ  
ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ**

---

**САМАРКАНДСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ИНСТИТУТ  
ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ**

**НЕЪМАТОВА НИГОРА СОЛИДДИН КИЗИ**

**ФОРМИРОВАНИЕ ПРОЦЕССА САМОСТОЯТЕЛЬНОГО ОБУЧЕНИЯ  
УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ ПРИ ОБУЧЕНИИ  
ИНОСТРАННОМУ ЯЗЫКУ**

**13.00.02 – Теория и методика образования и воспитания (английский язык)**

**АВТОРЕФЕРАТ  
диссертации доктора философии (PhD) по педагогически наукам**

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована Высшей аттестационной комиссией при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан рег. № B2025.1.PhD/Ped7103.

Диссертация выполнена в Самаркандском государственном институте иностранных языков. Автореферат диссертации на трёх языках (узбекский, русский и английский (резюме)) размещён на веб-странице Научного совета ([www.samdchti.uz](http://www.samdchti.uz)) и Информационно-образовательном портале «Ziyonet» ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)).

**Научный руководитель:** Рустамова Адаш Эшанкуловна  
доктор педагогических наук (DSc), доцент

**Официальные оппоненты:** Жуманазаров Умид Умирзакович  
доктор педагогических наук (DSc), профессор

Рахмонов Азизхон Боситхонович  
доктор педагогических наук (DSc), профессор

**Ведущая организация:** Самаркандский государственный педагогический институт

Защита диссертации состоится « 6 » Марта 2026 года в 10<sup>00</sup> часов на заседании Разовый научный совет при научном совете PhD.03/2025.27.12.Fil.37.02 по присуждению ученых степеней при Самаркандском государственном институте иностранных языков. (Адрес: 140117, г. Самарканд, улица Гагарина, 43. Тел: (99866) 238-29-37; факс: (99866) 210-00-18; e-mail: [info@samdchti.uz](mailto:info@samdchti.uz))

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Самаркандского государственного института иностранных языков (зарегистрирована за номером 62699). Адрес: 140117, г. Самарканд, улица Гагарина, 43. Тел.: (99866) 238-29-37.

Автореферат диссертации разослан « 19 » февраля 2026 года.  
(Протокол реестра рассылки за № 5 от « 19 » февраля 2026 года)



**Н.З. Насруллаева**  
Председатель Разового научного совета по присуждению ученых степеней, доктор филологических наук (DSc), профессор

**У.У. Кулдошов**  
Ученый секретарь Разового научного совета по присуждению ученых степеней, доктор философии (PhD) по филологическим наукам, доцент

**Д.А. Киселёв**  
Председатель Разового научного семинара при научном совете по присуждению ученых степеней, доктор филологических наук (DSc), профессор

## **ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))**

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** Применение международных стандартов в определении показателей качества обучения иностранным языкам в мире еще больше усилило потребность стран уделять больше внимания обучению иностранным языкам в языковом образовании и совершенствовать его преподавание. В целях повышения эффективности обучения иностранному языку адаптация учебно-методического обеспечения на основе международных требований, интеграция элементов самостоятельного обучения в образовательный процесс и системное управление качеством образования являются основными взаимодополняющими факторами в достижении ожидаемых результатов. Такой подход не только делает процесс обучения языку эффективным, но и значительно повышает общий уровень образования учащихся, стимулируя самоконтроль, индивидуальное развитие и самостоятельное мышление.

Проекты, реализуемые в ведущих высших учебных заведениях мира, таких как Кембридж, Оксфорд, Канада, а также научно-практические исследования, проводимые в школах развитых стран, таких как Корея, Финляндия, Япония и Китай, имеют важное значение в обучении учащихся начальных классов иностранному языку с учетом их психологических аспектов, индивидуальных особенностей и учебных возможностей, преподавании иностранного языка как средства межкультурной коммуникации, преподавании некоторых предметов на английском языке на начальном этапе. При реализации этих проектов основной и ведущий акцент делается на формирование и развитие у учащихся навыков самостоятельного обучения, и научно обосновано, что этот процесс обеспечивает достижение эффективности в обучении иностранному языку с лингвопсихологической и лингводидактической точек зрения.

В системе образования Узбекистана проводится ряд реформ с целью повышения качества преподавания английского языка в начальных классах. В частности, программа ESN: STT служит развитию профессиональной компетенции учителей по обучению языку. Внедрение международных и национальных систем оценивания, таких как PIRLS, ENC и EGRA, позволяет развивать языковые навыки учащихся на основе современных критериев. Эти инициативы имеют особое значение в повышении языковой грамотности до высоких стандартов и дальнейшем совершенствовании технологий обучения иностранному (английскому) языку. В частности, определены такие задачи, как «Совершенствование методики обучения, поэтапное внедрение принципов индивидуализации в образовательно-воспитательный процесс»<sup>12</sup>. При этом важное значение приобретает совершенствование системы подготовки педагогических кадров путем разработки учебных материалов и педагогической оценки, а также пересмотр деятельности центров подготовки и переподготовки педагогов, предусматривающих освоение современных

---

<sup>12</sup>Мирзиёев Ш.М. От национального возрождения - к национальному прогрессу. - Ташкент, Узбекистан НМИУ, 2017. – 408 с.

технологий обучения, понимание педагогической психологии, овладение основами компетентности и личностно-ориентированных подходов к обучению.

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит выполнению задач, предусмотренных в Указах Президента Республики Узбекистан № УП-4947 от 7 февраля 2017 года «О Стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан», № УП-5538 от 5 сентября 2018 года «О дополнительных мерах по совершенствованию системы управления народным образованием», № УП-5712 от 29 апреля 2019 года «Об утверждении Концепции развития системы народного образования Республики Узбекистан до 2030 года», Постановлениях Президента Республики Узбекистан № ПП-4306 от 3 мая 2019 года «О мерах по выявлению одаренной молодежи и организации непрерывной системы подготовки высококвалифицированных кадров», № ПП-4199 от 20 февраля 2019 года «О мерах по созданию Президентских школ», Постановлениях Кабинета Министров Республики Узбекистан № 526 от 25 июня 2019 года «Положение о Президентских школах», № 9 от 9 января 2019 года «Об организации деятельности специализированных школ искусства и культуры и школ-интернатов» а также в других нормативно.

**Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики.** Диссертационное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики I. «Формирование системы социальных, правовых, экономических, культурных, духовно-просветительских инновационных идей информационного общества и демократического государства и пути их реализации».

**Степень изученности проблемы.** В нашей стране методикой преподавания иностранных языков занимались такие ученые, как Г.Х.Бакиева, Ж.Ж.Джалолов, Г.Т.Махкамова, Т.К.Сатторов, Л.Т.Ахмедова, Д.У.Хошимова, М.Джусупов, В.И.Андрянова, Ф.Ш.Алимов, Б.Г.Кулматов, У.У.Жуманазаров, И.М.Тухтасинов, А.Э.Рустамова, Г.Таджибаев<sup>13</sup>.

---

<sup>13</sup>Бакиева Г., Махкамова Г., Кулдошев А. Английский язык. - Ташкент, 2007. Джалолов Дж.Дж., Махкамова Г.Т., Ашуров Ш.С. Методика преподавания английского языка. - Ташкент: Наука и технология, 2015. - 336 с.; Ахмедова Л.Т. Теория и практика обучения профессиональной русской речи студентов-филологов. - Ташкент: Наука и технология, 2013. - 200 с.; Саттаров Т. Формирование профессиональных умений будущего учителя иностранного языка на практических занятиях по специальности (на материале английского языка) док. дисс. автореф 2000 г., 32 с., Хашимова Д.У. Лингводидактические основы изучения лакун в контексте современного функционирования русского языка и межъязыкового взаимодействия: док. дисс. - 209 с.; Джусупов М. Русский и английский языки в системе школьного полилингвального образования в Узбекистане. Русский язык за рубежом / специальный выпуск / 2017. С. 50-57; 145; Андрянова В.И. Теория и практика обучения узбекских школьников устному общению на русском языке: Дис....док. пед. наук. - Т., 1997. - 350 с.; Алимов Ф.Ш. Формирование письменной компетенции на английском языке (на примере нефилологических факультетов): Автореф. дисс.... пед. наук. по философии док. - Ташкент, 2018. - 41 с.; Кулматов Б.Г. Совершенствование теоретических основ использования критериев CEFR в преподавании английского языка с использованием инновационных технологий. - Ташкент, 2018. - 164.; Жуманазаров У.У Развитие лингвистической компетенции будущих учителей английского языка в среде цифровизации образования. - Автореф. дис.... док. пед. наук. - Ташкент, 2018. - 89 с.; Тухтасинов И.М. Развитие профессиональных компетенций в подготовке переводчиков на основе феномена эквивалентности.: Автореф. дисс.... пед. наук. док. - Ташкент, 2018. - 23 с.; Рустамова А.Э.

А.Мусурманова, М.М.Вахобов, Н.К.Ахмедова, О.Р.Жамолдинова, Б.Х.Ходжаев<sup>14</sup> провели научные исследования по качеству обучения и его управлению в системе школьного образования.

Научно-практические аспекты оказания психологической помощи в общеобразовательных школах в нашей республике и странах СНГ изучали Н.И.Халилова, Г.Р.Тожибоева, Н.Х.Холжигитова, З.А.Абдурахмонова, Н.Х.Маджитова, Н.С.Лейтес, М.Баграмянц, А.Д.Барбитова, Н.А.Бельская, Е.П.Ильин, Д.Канеман, И.Г.Антонова, О.Ю.Апарина, В.Н.Афанасева<sup>15</sup>.

В зарубежных странах В.С.Аванесов, А.А.Красноборова, М.Б.Челишкова, А.Д.Коэн, Т.Макнамара, А.Хюз, К.Кумб, Э.Харрисон, Дж.У.Оллер, Л.Ф.Бахман, Э.С.Палмер<sup>16</sup> проводили исследования по вопросам оценки уровня знания иностранного языка.

---

Формирование и развитие произношения при обучении иностранному языку у детей дошкольного возраста. - С.:2021.-136 с.; Тажибаев Г.Ш. Коммуникативный подход в обучении иностранному языку учащихся начальных классов.: Автореф. дисс. пед. наук. - Т., 2018. - С. 24.;

